

BOLALARDA YUQUMLI KASALLIKLARNING KECHISH
XUSUSIYATLARI

Djurayeva Shaxlo Alimovna Paxtachi Abu

Ali ibn Sino nomidagi jamoat
salomatligi texnikumi o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola bolalarda yuqumli kasalliklarning kechish xususiyatlariiga bag'ishlangan bo'lib, kasalliklarning rivojlanish sabablari, klinik belgilari, asoratlari va profilaktik choralar haqida keng ma'lumot beradi. Bolalar organizmining immunologik jihatdan zaifligi, infeksiyalarga yuqori sezuvchanligi va kasalliklarning o'ziga xos kechish xususiyatlari batafsil tahlil qilingan. Maqolada qizamiq, qizilcha, bo'g'ma, ko'kyo'tal, skarlatina, suvchechak va epidemik parotit kabi eng ko'p uchraydigan yuqumli kasalliklarning etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilar va mumkin bo'lgan asoratlari yoritilgan.

Аннотация:

Данная статья посвящена особенностям течения инфекционных заболеваний у детей и содержит обширную информацию о причинах развития заболеваний, клинических признаках, осложнениях и мерах профилактики. Подробно проанализированы иммунологическая слабость детского организма, высокая чувствительность к инфекциям, особенности течения заболевания. В статье описаны этиология, патогенез, клинические признаки и возможные осложнения наиболее распространенных инфекционных заболеваний, таких как корь, краснуха, коклюш, скарлатина, ветряная оспа и эпидемический паротит.

Abstract:

This article is dedicated to the characteristics of the course of infectious diseases in children, and provides extensive information about the causes of the development of diseases, clinical signs, complications and preventive measures. The immunological weakness of the children's organism, high sensitivity to infections, and specific features



of the disease course were analyzed in detail. The article describes the etiology, pathogenesis, clinical signs and possible complications of the most common infectious diseases such as measles, rubella, whooping cough, scarlet fever, chicken pox and epidemic parotitis.

Kalit so'zlar: Yuqumli kasalliklar, inkubatsion davr, infeksiya, bakteriya, virus, toshma, isitma, asorat, immunitet, vaksinatsiya

Ключевые слова: Инфекционные болезни, инкубационный период, инфекция, бактерия, вирус, враг, жара, лихорадка, иммунитет, вакцинация.

Key words: Infectious diseases, incubation period, infection, bacteria, virus, rash, fever, complication, immunity, vaccination

Kirish

Bolalar organizmi kattalarnikiga qaraganda ancha zaif va himoya tizimi to'liq shakllanmagan bo'lganligi sababli, yuqumli kasalliklarga ko'proq moyil bo'ladi. Shuningdek, bolalar orasida gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik va immunitetning yetarlicha shakllanmaganligi kasalliklarning oson tarqalishiga sabab bo'ladi.

Bolaning immun tizimi yoshga qarab o'zgarib boradi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda onadan o'tgan passiv immunitet bo'lsa-da, u vaqtinchalik bo'lib, astasekin yo'qoladi. Shu sababli bolalar ayniqsa 6 oylikdan 5 yoshgacha bo'lgan davrda infeksiyalarga nisbatan juda sezgir bo'ladilar.

Bolalarda yuqumli kasalliklarning umumiyligi kechish xususiyatlari

Yuqumli kasalliklar bolalarda quyidagi xususiyatlarga ega:

1. O'tkir boshlanishi va tez rivojlanishi

Bolalar organizmida metabolizm yuqori bo'lgani uchun kasallik tez rivojlanadi va og'ir kechishi mumkin.

Temperaturaning keskin ko'tarilishi, quşish, diareya, talvasa kabi simptomlar tez yuzaga keladi.

2. Kasallikning zo'rayish tendensiyasi

Immunitetning to'liq shakllanmaganligi sababli kasallik og'irroq kechishi mumkin.

Masalan, kattalarda yengil o‘tadigan qizamiq bolalarda pnevmoniya yoki ensefalit bilan murakkablashishi mumkin.

3. Organizmdagi tizimli o‘zgarishlar

Yuqumli kasalliklar nafaqat bitta a’zo yoki tizimga, balki butun organizmga ta’sir qilishi mumkin.

Masalan, enterovirus infektsiyalari nafaqat ichaklarga, balki yurak, jigar va asab tizimga ham zarar yetkazishi mumkin.

4. Bakterial infeksiyalarga moyillik

Virusli infeksiyalardan so‘ng bakterial infeksiyalar rivojlanish xavfi ortadi.

Masalan, grippdan keyin bronxit yoki pnevmoniya rivojlanishi mumkin.

5. Asoratlar xavfi yuqori

Difteriya, qizamiq, qizilcha kabi kasalliklar bolalarda nerv tizimi va ichki a’zolarni zararlashi mumkin.

Immuniteti sust bolalarda kasallikdan so‘ng uzoq davom etuvchi asteniya, revmatizm, miokardit kabi asoratlar yuzaga keladi.

Bolalarda ko‘p uchraydigan yuqumli kasalliklar va ularning kechishi

Bolalar orasida yuqumli kasalliklar turli viruslar, bakteriyalar va parazitlar tomonidan chaqiriladi. Quyida eng keng tarqalgan yuqumli kasalliklar va ularning xususiyatlari haqida batafsil ma’lumot beriladi.

1. Qizamiq (morbilli), qo‘zg‘atuvchisi: Morbillivirus (Paramyxoviridae oilasi)

Yuquv yo‘llari: Havo-tomchi yo‘li bilan yuqadi, inkubatsion davr: 7–14 kun

Asosiy belgilari: dastlab burun bitishi, kon'yunktivit, yo‘tal va isitma bilan boshlanadi, 3-4 kun ichida og‘iz shilliq qavatida Koplik dog‘lari paydo bo‘ladi. 4-5 kundan so‘ng butun tanaga qizil toshmalar toshadi. Toshmalar boshlanganidan 5-6 kun o‘tib yo‘qoladi, pigmentatsiya qolishi mumkin.

Asoratlari: O‘pka yallig‘lanishi (pnevmoniya), miya yallig‘lanishi (ensefalit), otit, bronxit va diareya

Oldini olish: Qizamiqqa qarshi emlash (MMR vaksina: qizamiq, qizilcha, parotitga qarshi).

Kechish xususiyatlari

O'tkir virusli kasallik bo'lib, yuqori harorat, rinit, kon'yunktivit va spesifik toshmalar bilan namoyon bo'ladi.

Bolalar orasida immuniteti pasayganlarda pnevmoniya, ensefalit kabi og'ir asoratlar rivojlanishi mumkin.

2. Qizilcha (rubella)

Qo'zg'atuvchisi: Rubivirus (Togaviridae oilasi), . Qizilcha (Rubella)- yengil kechuvchi virusli kasallik bo'lib, asosan bolalarda uchraydi.

Yuquv yo'li: Havo-tomchi yo'li orqali

Inkubatsion davr: 12–23 kun

Asosiy belgilari: Isitma 37,5–38°C, umumiy holsizlik, bo'yin limfa tugunlarining kattalashishi, butun tanada mayda pushti rangdagi toshmalar paydo bo'lishi, 3-5 kun ichida toshmalar izsiz yo'qoladi

Asoratlari: Agar homilador ayol kasallansa, bola tug'ma qizilcha sindromi bilan tug'ilishi mumkin (ko'z, yurak va eshitish muammolari).

Oldini olish: MMR vaksina.

3. Bo'g'ma (difteriya)- Qo'zg'atuvchisi: Corynebacterium diphtheriae

Yuquv yo'li: Havo-tomchi, aloqa yo'li, inkubatsion davr: 2–7 kun

Asosiy belgilari: Tomoq qizarishi, og'riq va yutish qiyinlashishi, oq yoki kulrang qattiq pardalar hosil bo'lishi (laringofaringeal difteriya), nafas qisilishi, ovoz bo'g'iq chiqishi, umumiy intoksikatsiya (isitma, holsizlik)

Asoratlari: Yurak mushaklariga zarar (miokardit), nerv tizimi shikastlanishi (falajlar)

buyrak yetishmovchiligi

Oldini olish: AKDS (difteriya, ko'kyo'tal, qoqshol) vaksinasini olish.

4. Ko'kyo'tal (pertussis), Qo'zg'atuvchisi: Bordetella pertussis, yuquv yo'li:, havo-tomchi yo'li, inkubatsion davr: 7–10 kun

Asosiy belgilari: Dastlab burun bitishi, yo'tal va isitma bilan boshlanadi, Keyincha tutqanoq kabi kuchli, uzoq davom etuvchi yo'tal paydo bo'ladi, bola yo'tal

paytida qusishi yoki nafasi qisilib, ko'karishi mumkin, kasallik 6-8 hafta davom etishi mumkin.

Asoratlari: O'pka yallig'lanishi, nafas yetishmovchiligi, ichki qon ketishlar
Oldini olish: AKDS vaksina.

5. Skarlatina- qo'zg'atuvchisi: Streptococcus pyogenes, yuquv yo'li: Havo-tomchi, aloqa yo'li, inkubatsion davr: 2–7 kun

Asosiy belgilari: isitma 39°C gacha chiqishi, tomoq og'rig'i va angina belgilari, qizil toshmalar (yuz, qo'lтиq va bo'yin atrofida boshlanadi), "Qizil til" sindromi – til qizil va donador bo'ladi

Asoratlari: Yurak mushaklari yallig'lanishi (miokardit), buyrak zararlanishi (glomerulonefrit), revmatizm

Oldini olish: Shaxsiy gigiyena, kasallanganlar bilan aloqa qilmaslik.

6. Suvchechak (varicella)- Qo'zg'atuvchisi: Varicella-zoster virus, yuquv yo'li: havo-tomchi, Inkubatsion davr: 10–21 kun

Asosiy belgilari: Dastlab isitma, bosh og'rig'i, umumiy holsizlik, 1-2 kundan keyin butun tanada qichishadigan pufakchalar paydo bo'ladi, pufakchalar qurib, ustida qobiq hosil qiladi, Odatda 10 kun ichida pufakchalar yo'qoladi

Asoratlari: Bakterial infeksiyalar (pufakchalarni tirlash natijasida), o'pka yallig'lanishi, neyroinfeksiya (ensefalit)

Oldini olish: Varicella vaksinasini olish.

7. Epidemik parotit (qulinq yallig'lanishi, "svinka")- Qo'zg'atuvchisi: Paramyxovirus, yuquv yo'li: havo-tomchi, inkubatsion davr: 12–25 kun

Asosiy belgilari: Og'iz bo'shlig'i va qulinq oldidagi so'lak bezlarining shishishi, isitma 38–39°C, yutish va chaynashda og'riq, holsizlik, bosh og'rig'i

Asoratlari: Pankreatit (oshqozon osti bezi yallig'lanishi), meningit (miya pardalarining yallig'lanishi), o'g'il bolalarda orxit (urug'don yallig'lanishi)

Oldini olish: MMR vaksina.

Bolalarda yuqumli kasalliklarning oldini olish

1. Vaksinatsiya- yuqumli kasalliklarning oldini olishning eng samarali usuli emlash hisoblanadi. Difteriya, qizamiq, qizilcha, ko'kyo'tal, polio kabi kasalliklarga qarshi majburiy emlashlar mavjud.
2. Shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish- qo'llarni muntazam yuvish, tishlarni tozalash, ovqatdan oldin va hojatxonadan keyin gigiyenaga rioya qilish muhim.
3. Bolalar bog'chalari va maktablarda profilaktik chora-tadbirlar, kasallangan bolalarni izolyatsiya qilish, tibbiy tekshiruvlarni o'tkazish, sinf va o'quv xonalarini dezinfeksiya qilish kerak.
4. Oziqlanish va immunitetni mustahkamlash- vitaminlarga boy oziq-ovqatlar iste'mol qilish, jismoniy faollikni oshirish, quyosh nurlari ta'sirida bo'lish immunitetni mustahkamlaydi.

5. Dori vositalari bilan profilaktika- epidemiologik mavsumlarda immunitetni mustahkamlovchi dori vositalaridan foydalanish mumkin (masalan, interferon preparatlari).

Xulosa

Bolalarda yuqumli kasalliklarning kechishi kattalarga qaraganda ancha o'ziga xos va og'ir bo'lishi mumkin. Immun tizimining yetarlicha rivojlanmaganligi, yuqori sezuvchanlik va infeksiyalarning tez tarqalishi bolalar orasida kasalliklarning ko'payishiga sabab bo'ladi. Shu sababli profilaktika choralari, vaksinalar va gigiyena qoidalariga qat'iy rioya qilish muhim sanaladi. Yuqorida sanab o'tilgan kasalliklarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning oldini olish va davolash choralari farqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizov U.M., Ismoilov S.I. "Yuqumli kasalliklar" – T., 2022
2. WHO (2024) "Childhood infectious diseases: prevention and management"
3. CDC (2024) "Vaccine-Preventable Diseases in Children"
4. Murodov A.A., Bo'riev N.X. "Pediatriyada yuqumli kasalliklar" – T., 2023
5. Министерство здравоохранения РУз. "Инфекционные болезни у детей" – Ташкент, 2023